

## QORAQALPOG'ISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA DAFN MAROSIMI AN'ANALARI

Kamalova D. A.

*Qoraqalpoq davlat universiteti*

Dunyo xalqlari tarixida asrlar davomida turli xil an'analar mavjud bo'lib, ular yillar davomida o'zgarishlarga uchrab yangicha ko'rinishga ega bo'ladi. Ammo shunday an'analar mavjud-ki, ular o'zining qadimiyligini yo'qotmasdan kelmoqda. Shunday marosimlardan biri dafn marosimi bo'lib, bu insonning qayg'uli kunlari nishonasi hisoblansa ham kundalik hayotda tez-tez uchrab turadigan hodisalardan biridir. Bu marosimlarni etnografik nuqtai nazardan o'rganish orqali, xalqimizning etnik tarixi va milliy mafkurasi haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Dafn marosimlarini o'rganishda avvalo, tarixiy manbalar, folklor materiallaridan foydalanish, bundan tashqari dala etnografik yozuvlarining ham ahamiyati kattadir.

O'lim turlicha nomlar bilan atalib, "qaytish qildi", "vafot etdi", "qaytti", "olamdan o'tdi" kabi nomlar bilan ataladi. Animistik tasavvurlarda esa, "uyg'onmas uyqu" deb ham atashadi. Inson o'limi asosan qarilik, kasallik yoki tasodifan yuz berishi mumkin. Tabiiy o'linga qarilik va kasallikni olsak, notabiiy o'lim bevaqt o'lim hisoblanib, falokat yoki o'z joniga qasd qilish orqali yuz berishi mumkin. G. P. Snesarov, Q. Nasriddinov, A. Toleubaev, A. Tokarev va A. Ashirov[1] kabi olimlarning dafn marosimlariga oid ilmiy tadqiqotlari diqqatga sazovor. Respublikamizning turli hududlaridagi dafn marosimlarini o'rgangan olimlar dafn marosimlari an'analarga davrning ham o'z ta'siri mavjud ekanligini ta'kidlaydilar.

Mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda ma'naviyat va madaniyatga katta e'tibor qaratildi. Jumladan, "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tamonidan qabul qilingan 2010 yil 27 dekabrda O'zbekiston Respublikasi 276-son qonuni qabul qilindi[2].

Inson hayotining so'nggi kunlarida bemor bilan vidolashuv jarayoni qozoq va o'zbek xalqida ham deyarli o'xshashlik holati kuzatilib, yaqin qarindoshlari bemorning so'nggi istaklarini bajarishga harakat qilib, oxirgi nafaslarida birga bo'lishni farz deb bilishadi. Dala yozuvi jarayonida Qoraqalpog'istonning deyarli ko'pchilik qismidan farqli ravishda To'rtkul tumanida dafn marosimida jasadning ayollar yig'i qilayotgan (sadr) xona o'rtasida turganining guvohi bo'ldik. Bu an'ana hozirgi kunda kamdan-kam uchraydigan holat hisoblanadi. "Sadr"dagi ayollarning boshiga motam belgisi sifatida motamga xos ro'mol bog'lashadi. Shuningdek, ayrim hududlarda ayollar o'tirgan xonaning bir qismiga dor tortilib, unga yangi gilam yoki palos osib qo'yishadi, uning bir qismida jasad ikkinchi qismida ayollar yig'i qilishadi. Bu holatga bir hududning turlicha o'zgachaligi deyishimiz mumkin. Yig'ini mufassal tasvirlash uchun ayni janoza jarayoni zarur hisoblanadi. Boisi, sun'iy ehtiyoj munosabati bilan jarayonning asl ko'rinishi to'liq tasvirlanmaydi. Ba'zilar motamga tegishli qo'shiq va yor-yorlarni har doim ham ijro qilavermaydi.

Marhumni poklash ishlariga katta e'tibor qaratilib, bunda tajribali va yoshi katta insonlar qatnashishadi. G'assollar- bu maxsus o'lik yuvuvchilar bo'lib, har qanday vaziyatda ham o'z ishini mukammal darajada bajarishgan. Kasbiga yarasha bilimli bo'lgan kishilar qadimda aholidan ajralgan holda yashashgan. Bozorda aholidan ajralib turish maqsadida bo'yniga qo'ng'iroqcha osib yurishgan [3].

Mayyitni poklash savobli va ma'suliyatli ish bo'lib, tadqiqot ob'ekti hududlarida yaqin qarindoshlari tomonidan amalga oshiriladi. Odatda poklash ishlariga inson tanasiga qarab beshta yoki yetti kishidan iborat bo'lib poklashadi. Yuvuvchilarning har birining alohida vazifalari mavjud hisoblanadi. Ma'lumot beruvchining aytishicha, qozonda ilitilgan suvni xonaga olib keluvchi kishi oyog'iga mahsi kiyishi zarurligi bu esa ba'zan marhum tomonidan oldindan tayyorlab qo'yilar ekan. Suv olib kelgan insonga mahsi berilishi odat tusiga kirgan. Marhumning eng yaxshi (qimmatbaho) kiyimini bosh yuvuvchiga berilishi lozim. Qazondagi suvdan boshqalar bexosdan foydalanib qo'ymasligi uchun suvga paxta tashlab qo'yilgan. Suvni ilitishda ham o'tin tanlashga e'tibor qaratishgan. Ayrim ma'lumotlarda marhum yoshi ulug' tabarruk inson bo'lsa, jasad yuvilgan suvdan yosh bolalarga "chilla" kasalligi uchun davo sifatida yuvishda foydalanishgan[4].

Kafan insonning eng so'nggi kiyimi bo'lib, oq matodan tayyorlanib, bir necha qismlardan iborat. Ayollar uchun beshta erkaklar uchun uchta bo'lakdan iborat qilib tayyorlashgan. Kafan har doim hududning mullasi tomonidan tayyorlanadi. Ayollar va erkaklar uchun (choyshab, izar, qamis) faqat ayollar uchun (himor, xirfa) kabi bo'laklarga ajratiladi[5].

Odatda islom dinida baland ovozda yig'lash mumkin emas, ammo motam marosimi o'zining konservativligini yo'qotmaganligi sababi, bu an'ana hali ham shunday ko'rinishga ega. Qozoq xalqida ayniqsa, janoza paytida ayollarning yig'isiga katta e'tibor berilib, "joqtaw" aytish holati alohida mavzu hisoblanadi. Janozaga kelgan ayollarning yopiq kiyim kiyishiga va ko'ylak rangiga ham katta e'tibor berishadi. Ba'zi hududlarda janozaga borishda kiyiladigan alohida kiyimlari ham mavjud ekan. Bugungi kunda "sadr" ancha yengil shaklga kelib, marhumning yaqinlari o'tirgan holatda yig'lashadi. Oldinlari yig'lash tik turgan holatda amalga oshirilib, holdan toyib qolishning oldini olish maqsadida beliga mahkamlab ro'mol bog'lashgan. Shu bois ham biror mushkulot yuz berishi kutilsa, "belingni mahkam bog'la" iborasi ishlatiladi.

Janoza- tirik tug'ilgan barcha musulmon ahliga ko'mish oldidan o'qiladigan namoz hisoblanadi[6]. Bu namoz qiblaga yuzlanib jamoat ishtirokida saf bo'lib o'qiladi. Dinda janoza o'z joniga qasd qilganlarga o'qilishi nojoizdir. Chunki xudoning bergan umriga noshukurlik sifatida baholanadi. Shu bois bunday holatlarda mayyitning tobuti yoniga bir xoda (yag'och) sanchib qo'yilib, keyin shu xodaga qarab janoza o'qishadi. Bunday

holatlarda mulla janoza o'qishdan bosh tortsa, marhumning yaqinlari ham janoza o'qishiga ruhsat beriladi. Janoza 4 tarkibdan iborat bo'lib, sano, salovat, duo va salomdan iborat. Janoza o'qish jarayonida ayollar yi'gi qilishni to'xtatishi lozim. Janoza qanchalik ko'p omma bilan birgalikda o'qilsa marhum uchun yengillik bo'lar ekan [7]. Jasadni uydan olib chiqish jarayonidagi uy ostonasiga tobutni tekkazish kabi an'analar bugungi kunga kelib asta-sekin yo'qolib bormoqda. Qozoq xalqida janozada qatlama tayyorlanib, yig'ilganlarga yeyish uchun tutib chiqiladi. Bu mahalliy tilda "tuproq yalama" deyiladi. Mayyitni odatda, erkak kishilar o'g'illari va yaqin qarindoshlari ko'tarib, deyarli yugirish holatida qabristonga eltishadi. Bu jarayonga guvoh bo'lgan erkak kishilar savob uchun mayyitni ko'tarishda o'z xissasini qo'shishadi. Marhum uydan olib chiqib ketilgach, xonadon ostonasida piyola sindirish kabi irimlar hamon mavjudligiga guvoh bo'ldik.

Qabrga qo'yishda ham bir qancha amallarga rioya qilinadi. Mayyitning yuzi qibla (Makka)ga qaratilib, boshi biroz engashgan holatda qo'yiladi. Oldinlari qabrga marhum tomonidan oldindan tayyorlangan "nurnoma" bilan ham dafn qilishgan. Janoza o'qilayotganda va mayyit qabristonga olib ketilayotgan paytda homilador ayollar uylarida tik turishgan yoki uyining tomiga chiqishgan. Qabrni qarindoshlari joylashgan qabristonga tayyorlashgan [8]. Respublikamizning ko'pchilik hududlarida marhumning vafotidan keyin uch kungacha ovqat pishirilmaydi. Bu haqida hatto diniy kitoblarda ham qayd etilgan. O'zbek xalqiga tegishli bo'lgan bu an'ana qozoq va qoraqalpoq xalqlarida mavjud emas. Akisncha, ularda qora mol qurbonlik qilinib, ovqat pishiriladi va janozaga kelganlarga tortiladi. Qozoqlarda marhumni "tuneti" an'anasi mavjud bo'lib, marhumni "mehmon" qilishadi. Motam yuz bergan xonadonda ayollar motam belgisi sifatida qora, ko'k yoki oq rangli kiyim kiyib yurishadi. Erkaklar esa, boshida do'ppi beliga belbog' va chapon kiyib yurishadi. Buxoro hududida esa, qirq kunga qadar azadorlar oyog'iga mahsi kiyib yurishgan.

Mayyit turgan xonada yetti kunga qadar Qur'on tilovat qilinadi va o'sha xonada kechasi qirq kunga qadar chiroq yoqib qo'yiladi. Bundan tashqari mayyit turgan xonada qirq kunga qadar yaqin qarindoshlari uxlashadilar. Janoza kunidan keyin, yetti kunga qadar, ertalab tong yorishmasdan turib erkak qarindoshlari qabr boshiga borib, marhumdan "xabar" olib Qur'on tilovat qilib kelishadi. Boisi, yangi qurilgan qabr turli hayvonlar tomonidan shikast yetkazilmaganidan boxabar bo'lish maqsadida bu ishlar amalga oshiriladi. Bunga o'xshash holat boshqird xalqlarida ham mavjud [9].

Bundan tashqari shu xonadonda "yetti" sadaqasiga qadar kir yuvilmaslik an'anasi hozirgi kunga ham mavjud. Zarurat yuz berganda xonadondan uzoqda yoki qo'shninikida yuvish holatlari kuzatiladi. Azadorlar kiyimini qirq kunga qadar yuvmasdan kiyishi tadqiqot jarayonida ma'lumot sifatida yozib olindi. XX asr boshlarida milliy taraqqiyparvar M. Behbudiyning "Oyna" jurnalida to'y va dafn marosimlaridagi isrofgarchiliklar bid'at sifatida qattiq qoralanadi. "Najot" gazetasida to'y va ma'rakalarni tartibga solish to'g'risida chiqargan qarornomasi e'lon qilgan [10]. "Yirtish" aslida marhumning yaqin uchta to'rtta do'sti uchun kiyimidan bir parcha qilib yirtib berish an'anasi. Bu an'ana bugungi kunimizda ham mavjud bo'lib, yoshi katta insonlarning dafn marosimida janozaga kelgan insonlarga ro'mol yoki boshqa narsaning tarqatilishiga aytiladi. Uni ba'zi hududlarda "tabarik" yoki "iyisi" deb ham atashadi. Bu matodan yosh bolalar uchun shu yoshga yetsin degan ma'noda kiyim tikishadi.

Bugungi kunga kelib dafn marosimida ham bir qancha transformatsion holatlar kuzatilib, marhumning nomiga atab Qur'oni Karim kitobini masjidga sov'ga qilish yoki bolalar uylariga yeguliklar tarqatish kabi an'analar kirib kelmoqda. Dafn marosimi qanchalik iztirobli bo'lmasin, kundalik turmush tarzimizda tez-tez uchrab turuvchi nohush xodisadir.

#### ADABIYOTLAR

1. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. М.: Наука, 1969. – 336 с.// Насриддинов Қ. Ўзбек дафн ва таъзия маросимлари. Тошкент: Мерос, 1996. – 144 б.// Толеубаев А.Т. Реликты доисламских верований в семейной обрядности казахов. – Алматы: Наука, 1991. – 210 б.// Токарев С.А. Погребальные обычаи, их смысл и происхождение // ЭО. 1999. № 5. С. 42 – 47. // Аширов А. Ўзбек халқи мотам маросимларида зардуштийлик излари // Ozbekiston tarixi. 2002. № 1. 65-71-бетлар.
2. Dafn va dafn ishi to'g'risida 2010 yil 27 dekabrda O'zbekiston Respublikasi 276-son qonuni
3. Кармышева Б.Х. Архаическая символика в погребально-поминальной обрядности... С. 143.
4. Dala yozuvi. Yusupova Zubayda. Beruniy tumani. Ibn Sino mahallasi. 1945 yil tug'ilgan.
5. Кармышева Б.Х. Архаическая символика... С. 144.
6. Islom ensiklopediyasi.(2004). Zuhridin Husniddinov tahriri ostida. C- 53
7. Dala yozuvi. Shomuratova Dilbar.1964 yil. Amudaryo tumani Arna bo'yi MFY
8. Dala yozuvi. Rajapova Xonimjon. Amudaryo tumani Olmazor MFY.1958 y.
9. Изибаева Г. М. Похоронно-поминальные обряды марийцев Республики Башкортостан. Диссертация. Казан 2019
10. Бехбудий М. Бизни кемирувчи иллатлар / Танланган асарлар. Тошкент: Маънавият, 2006. 190 – 193-бетлар.

**Rezyume:** Maqolada dafn marosimida bajariladigan turli an'analar haqida aytib o'tilgan. Dafn marosimidagi ayrim termin va atamalar ham etnografik jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, mavzu tarixiy asarlar va dala etnografik yozuvlari asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'lim, "uyg'onmas uyqu", kafan, janoza, "suyakchilar", yo'qlov. "sadr".

**Аннотация:** В статье рассматриваются различные традиции, соблюдаемые во время похорон. Некоторые термины и выражения, используемые на похоронах, также изучаются этнографически. Тема рассматривается на основе исторических работ и этнографических полевых заметок.

**Ключевые слова:** Смерть, «бессонный сон», саван, похороны, «резчики по кости», исчезновение. «седр».

**Summary:** The article discusses various traditions performed during funerals. Some terms and expressions used in funerals are also studied ethnographically. The topic is also covered on the basis of historical works and ethnographic field notes.

**Key words:** Death, "unwakeless sleep", shroud, funeral, "bone-carvers", disappearance. "cedar".

---